

Kozakova Oydin Sobirjanovna

Namangan davlat universiteti stajyor-o'qituvchisi

kozakovaoydina@gmail.com

AERIKA REALIZMINING RIVOJLANISHI VA BU OQIMGA HISSA QO'SHGAN ASOSIY VAKILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqola Amerika realizmining rivojlanishi, asosiy vakillari va ularning ijodiy yondashuvlari haqida ma'lumot beradi. Tadqiqotda realizmning paydo bo'lishi, uning ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan bog'liqligi, shuningdek, asosiy xususiyatlari hamda shu oqim yozuvchilarning ijodiy merosi tahlil qilinib, ularning realizm rivojiga qo'shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, realizmning keyingi adabiy oqimlar – naturalizm va modernizmga ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Amerika realizmi, adabiy oqim, Mark Tven, Genri Jeyms, Uilyam Din Howells, Keyt Chopin, Stiven Kreyn, psixologik tahlil, ijtimoiy realizm, naturalizm, modernizm.

Kozakova Oydin Sobirjanovna

Junior teacher at Namangan State University

kozakovaoydina@gmail.com

THE DEVELOPMENT OF AMERICAN REALISM AND THE KEY REPRESENTATIVES WHO CONTRIBUTED TO THIS MOVEMENT

Annotation: This article provides information on the development of American realism, its key representatives, and their literary approaches. The study examines the emergence of realism, its connection with social and economic changes, and its main characteristics. The literary legacy of prominent realist writers is analyzed, highlighting their contributions to the evolution of realism. Additionally, the influence of realism on later literary movements such as naturalism and modernism is discussed.

Key words: American realism, literary movement, Mark Twain, Henry James, William Dean Howells, Kate Chopin, Stephen Crane, psychological analysis, social realism, naturalism, modernism.

Козакова Ойдин Собиржановна

Стажер-преподаватель Намаганского государственного университета

kozakovaoydina@gmail.com

РАЗВИТИЕ АМЕРИКАНСКОГО РЕАЛИЗМА И ОСНОВНЫЕ ПРЕДСТАВИТЕЛИ, ВНЕСШИЕ ВКЛАД В ЭТО НАПРАВЛЕНИЕ

Аннотация: В данной статье представлена информация о развитии американского реализма, его ключевых представителях и их литературных подходах. Исследование рассматривает появление реализма, его связь с социальными и экономическими изменениями, а также основные характеристики. Анализируется литературное наследие ведущих

реалистических писателей, подчеркивается их вклад в развитие реализма. Кроме того, обсуждается влияние реализма на последующие литературные направления, такие как натурализм и модернизм.

Ключевые слова: *Американский реализм, литературное направление, Марк Твен, Генри Джеймс, Уильям Дин Хауэллс, Кейт Шопен, Стивен Крейн, психологический анализ, социальный реализм, натурализм, модернизм.*

Kirish. Realizm – XIX asrning oʻrtalarida Yevropa va Amerika adabiyotida shakllangan badiiy yoʻnalish boʻlib, hayotni haqiqatga yaqin tasvirlashga asoslangan. Bu yoʻnalish idealizatsiya va romantik xayollardan voz kechib, insonning hayotiy sharoitlarini, ijtimoiy muammolarni hamda axloqiy ziddiyatlarni realistik tarzda aks ettirishni maqsad qilgan.

Realizmning shakllanishiga sanoat inqilobi, urbanizatsiya, ilm-fan taraqqiyoti va ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar katta taʼsir koʻrsatdi. Ushbu davrda jamiyat keskin oʻzgarishlarga uchrab, sanoatning rivojlanishi natijasida ijtimoiy tabaqalanish yanada kuchaydi. Oddiy mehnatkashlarning hayoti va jamiyatning tub muammolari adabiyotning muhim mavzularidan biriga aylandi. Shu bois realist adabiyot ijodkorlari hayotning barcha jabhalarini haqiqatga iloji boricha yaqin tarzda tasvirlashga harakat qildilar.

Realistik adabiyot inson tabiatini chuqur tahlil qilish, shaxsiy tajribalar va ichki kechinmalarni aniq aks ettirish bilan ajralib turadi. Bu yoʻnalishning asosiy xususiyatlaridan biri kundalik hayot tafsilotlarini aniq va batafsil tasvirlash boʻlib, unda ijtimoiy ziddiyatlar, iqtisodiy muammolar va axloqiy qadriyatlarning oʻzgarishi asosiy eʼtiborda boʻldi. Realist yozuvchilar oʻz asarlarida qahramonlarning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy muhit oʻrtasidagi bogʻliqlikka alohida ahamiyat berib, hayotning barcha qirralarini haqqoniy tasvirlashga intildilar.

Realizm faqat adabiyotdagina emas, balki sanʼatning turli sohalarida ham oʻz aksini topdi. Ushbu yoʻnalish jamiyatning haqiqiy holatini aks ettirgan holda, nafaqat oʻquvchilar, balki butun madaniy muhitga ham katta taʼsir koʻrsatdi. Keyinchalik

realizm naturalizm, modernizm va boshqa adabiy oqimlarning rivojlanishiga zamin yaratib, adabiyotning yangi bosqichlarga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Realizmning asosiy xususiyatlari:

Haqiqatni ob'ektiv tasvirlash – adabiyotda hayotni xolisona aks ettirish muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy muammolarni yoritish – yozuvchilar jamiyatdagi tabaqalanish, qashshoqlik, adolatsizlik kabi muammolarni tasvirlashga intilgan.

Oddiy inson qahramon sifatida – romantizmga ideal qahramonlar yetakchi bo'lsa, realizmga oddiy mehnatkashlar, kambag'allar, xizmatkorlar ham bosh qahramonga aylangan.

Psixologik chuqurlik – realizm asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari chuqur o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili. Amerika adabiyotida realizm XIX asr o'rtalaridan boshlab rivojlangan va ko'plab tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Quyidagi adabiyotshunoslar Amerika realizmi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan: Donald Pizer, Amy Kaplan William Dean Howells. Amerika realizmi jamiyat va madaniyat o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, uning adabiy o'rganilishi ham ijtimoiy tadqiqotlar bilan parallel olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu tadqiqot tahliliy va tavsifiy (descriptive & analytical) tadqiqot hisoblanadi. Unda realizm adabiyotining asosiy xususiyatlari, vakillari va tarixiy rivojlanishi haqida ma'lumot berilgan.

Natijalar va ularning tahlili. Amerika realizmi XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlanib, jamiyatda yuz bergan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq edi. Bu davrda sanoat inqilobi, fuqarolar urushi (1861–1865) va g'arbiy hududlarning kengayishi amerikalik yozuvchilarga jamiyat hayotini haqqoniy aks ettirish uchun yangi mavzularni taqdim etdi.

Amerika realistik asarlarida quyidagi asosiy yo'nalishlar kuzatiladi:

Haqiqatni ob'ektiv tasvirlash: Amerika realizmi idealizatsiya va romantikaga qarshi chiqib, inson hayotining real jihatlarini tasvirladi; Hayotning murakkabliklari, oddiy insonlarning qiyinchiliklari va jamiyatdagi muammolar oldingi badiiy tasvirlarga nisbatan ancha aniq ifodalandi.

Ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar ta'siri: Sanoat inqilobi va shaharlarning o'sishi natijasida realizm asarlarida mehnatkashlar, ishchilar, kambag'allar va jamiyatning quyi qatlamlari haqida ko'proq hikoya qilindi; Irqiy va gender muammolar ham muhim mavzulardan biriga aylandi; Psixologik tahlil va xarakter rivojlanishi; Qahramonlar ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ularning harakatlariga sabab bo'luvchi omillar chuqur o'rganildi; Bu uslub keyinchalik naturalizm va modernizm adabiy oqimlariga asos bo'ldi.

Amerika realizmining rivojlanishida hissa qo'shgan yozuvchilar hamda ularning asarlari tahlili:

1. Mark Tven (1835–1910). Asarlari: “Geklberri Finnning sarguzashtlari”, “Tom Soyverning sarguzashtlari”

- Tven Amerika janubidagi hayotni haqqoniy tasvirlagan.
- Qashshoqlik, irqiy tengsizlik va bolalar dunyoqarashi asarlarining asosiy mavzusi bo'lib xizmat qilgan.
- Satirik va tanqidiy uslub realizmning muhim xususiyatlaridan biri sifatida ajralib turadi.

2. Genri Jeyms (1843–1916). Asarlari: “Amerikalik”, “Dazy Miller”, “Bostondagi odamlar”, “Aql ko'zlari”

- Psixologik tahlil va ichki monolog orqali inson xarakterining murakkab tomonlarini o'rgangan.
- Yevropa va Amerika madaniyatlarining to'qnashuvi uning asarlarida asosiy mavzulardan biri hisoblanadi.
- Realizmga xos ravishda qahramonlar qarorlarini ularning shaxsiy tajribasi va jamiyatdagi o'rni bilan bog'lagan.

3. Uilyam Din Howells (1837–1920). Asarlari: “Silas Laphamning yuksalishi”, “Hazil va ehtiros”, “A Woman’s Reason”

- Amerika adabiyotida realizm tamoyillarini keng targ‘ib qilgan va nazariy jihatdan rivojlantirgan.

- Ijtimoiy o‘zgarishlarni, kapitalizmning ta’sirini va oilaviy munosabatlarni tahlil qilgan.

- Uning qahramonlari odatda o‘z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib qaror qabul qiladigan oddiy kishilar bo‘lgan.

4. Keyt Chopin (1850–1904). Asarlari: “Uyg‘onish”, “Bayou Stories”, “Madam Otelin”, “At the ‘Cadian Ball”

- Ayollar huquqlari va gender tengsizlik masalalariga e’tibor qaratgan.

- Ayollarning ichki dunyosi, ularning jamiyatdagi o‘rni va oilaviy munosabatlar asosiy mavzular sifatida tasvirlangan.

- Uning “Uyg‘onish” romani feminist realizmning yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

5. Stiven Kreyn (1871–1900). Asarlari: “Qizil bayroq belgisi”, “Magging hikoyasi”, “Ochiq dengizda”

- Naturalizm bilan bog‘liq realizm namoyandasi bo‘lib, insonning hayotiy sharoitlar oldidagi ojizligi va kurashini tasvirlagan.

- Urush, kambag‘allik va shaxsiy fojiaiy kechinmalar uning asarlarida asosiy mavzular bo‘lib xizmat qilgan.

1. Amerika realizmi jamiyatning real muammolarini aks ettirish orqali klassik adabiyotdan farq qilgan

- Klassik adabiyot qahramonlarining idealizatsiyasi kamaydi, oddiy insonning hayoti, kundalik muammolari va ijtimoiy ziddiyatlar tasvirlandi.

2. Asarlar tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan

- Mark Tven janubdagi irqchilik va ijtimoiy tengsizlikni ko‘rsatgan.

- Genri Jeyms Yevropa va Amerika madaniyatlarining to‘qnashuvini yoritgan.

- Keyt Chopin ayollar huquqlari va gender tengsizlik mavzusiga urg'u bergan.

3. Psixologik tahlil kuchaygan

- Qahramonlarning ichki kechinmalari chuqur o'rganilgan, ularning harakatlari psixologik va ijtimoiy sabablar bilan bog'langan.

4. Realizm keyinchalik naturalizm va modernizmning shakllanishiga ta'sir qilgan

- Stiven Kreyn va Genri Jeymsning asarlari keyingi naturalistik adabiyotning rivojlanishiga zamin yaratgan.

- Psixologik tahlil usuli keyinchalik modernist yozuvchilar tomonidan ham keng qo'llangan.

Xulosalar. Amerika realizmi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida adabiyotda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu yo'nalish hayotni haqiqatga yaqin tasvirlashga intilib, o'quvchiga real voqelikni ochib berish va inson ruhiyatining murakkab jihatlarini yoritishga xizmat qildi. Realist yozuvchilar jamiyatdagi muhim ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni, shuningdek, shaxsiy tajriba va ichki kechinmalarni aniq va haqqoniy tasvirlashga harakat qildilar.

Bu adabiy oqimning shakllanishiga sanoat inqilobi, urbanizatsiya, ichki migratsiya va sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi kabi tarixiy jarayonlar katta ta'sir ko'rsatdi. Realistik adabiyotda ilgari romantizm hukmron bo'lgan idealizmdan voz kechilib, hayotning real, ko'pincha murakkab va muammoli jihatlarini tasvirlangan. Realizmning asosiy xususiyatlaridan biri inson ruhiyati va ijtimoiy hayotning haqqoniy aks ettirilishi bo'lib, bu yo'nalish keyinchalik naturalizm va modernizm kabi yangi adabiy oqimlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Amerika realizmining yorqin vakillari orasida Mark Tven, Genri Jeyms, Uilyam Din Howells, Keyt Chopin va Stiven Kreyn kabi yozuvchilar bor bo'lib, ularning ijodi Amerika adabiyotida chuqur iz qoldirgan. Mark Tven o'z asarlarida xalq tilidan foydalanish, oddiy insonlarning hayotini realistik tarzda tasvirlash va jamiyatdagi muammolarni hajviy uslubda yoritish bilan ajralib tursa, Genri Jeyms

inson ruhiyatini teran psixologik tahlil qilishga urg'u bergan. Uilyam Din Howells esa jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va iqtisodiy muammolarni haqqoniy aks ettirgan. Keyt Chopin ayollar huquqlari va gender muammolarini realistik tarzda ochib bergan bo'lsa, Stiven Kreyn naturalizmga yaqinlashgan holda hayotning shafqatsiz va dramatik jihatlariga urg'u bergan.

Realizm adabiyotning faqat tasviriy uslubigina bo'lib qolmay, balki uning falsafiy asosiga ham aylandi. Bu yo'nalish inson ruhiyatini, jamiyatdagi ziddiyatlarni va hayotning achchiq haqiqatlarini ochib berish orqali adabiyotga katta hissa qo'shdi. Uning ta'siri XX asr boshlarida naturalizm, modernizm va keyinchalik boshqa adabiy oqimlarning rivojlanishiga asos bo'ldi. Amerika realizmi nafaqat adabiyotda, balki umuman san'at va madaniyatda ham katta iz qoldirib, jahon adabiyoti taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pizer, Donald. The Cambridge Companion to American Realism and Naturalism. Cambridge University Press, 1995.
2. Kaplan, Amy. The Social Construction of American Realism. University of Chicago Press, 1988.
3. Howells, William Dean. Criticism and Fiction. Harper & Brothers, 1891.
4. James, Henry. The Art of Fiction. Macmillan, 1884.
5. Twain, Mark. The Adventures of Huckleberry Finn. Charles L. Webster and Company, 1885.
6. Chopin, Kate. The Awakening. Herbert S. Stone & Company, 1899.
7. Crane, Stephen. The Red Badge of Courage. Appleton, 1895.
8. Lukács, Georg. The Historical Novel. Merlin Press, 1962